



ITALY



ITALY

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA INNOVATSION  
TEXNOLOGIYALAR ORQALI EKOLOGIK MADANIYATNI  
SHAKLLANTIRISH MUAMMOLARI****Karamatova Dilfuza Sadinovna**

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika  
universiteti Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi kafedراسi dotsenti, PhD.

**Xurramova Kamola**

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika  
universiteti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 4-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19437166>

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirish jarayonida innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Raqamli texnologiyalar, interaktiv metodlar, multimedia vositalari hamda o'yin texnologiyalarining ekologik ong va mas'uliyatni rivojlantirishdagi o'rni yoritiladi.

**Kalit so'zlar:** Ekologik madaniyat, innovatsion texnologiyalar, boshlang'ich ta'lim, raqamli ta'lim, interaktiv metodlar, ekologik tarbiya, pedagogik texnologiya.

Bugungi kunda ekologik muammolarning keskinlashuvi jamiyat oldiga ekologik ongli, tabiatga mas'uliyat bilan munosabatda bo'ladigan shaxslarni tarbiyalash vazifasini qo'yimoqda. Ushbu jarayonda ta'lim tizimi, ayniqsa, boshlang'ich ta'lim muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki aynan boshlang'ich sinf davrida bolalarda atrof-muhitga nisbatan dastlabki tasavvurlar, qadriyatlar va munosabatlar shakllanadi. Shu sababli ekologik madaniyatni erta yoshdan rivojlantirish zamonaviy pedagogikaning dolzarb masalalaridan biridir. Innovatsion texnologiyalar esa ushbu jarayonni samarali tashkil etish uchun keng imkoniyatlar yaratadi [26].

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirish jarayoni ularning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda olib borilishi lozim. Bu yoshdagi bolalar ko'proq obrazli tafakkurga ega bo'lib, ko'rish, eshitish va amaliy faoliyat orqali bilimlarni tezroq o'zlashtiradi. Shu bois innovatsion texnologiyalar, xususan, multimedia vositalari, interaktiv o'yinlar va raqamli ta'lim platformalari ekologik tarbiya jarayonida samarali hisoblanadi [17].

Shuni alohida takidlashimiz joizki, bugungi kunga qadar atrof-muhitning insonga psixologik ta'siri juda kam miqdorda qaratilgan [18]. Eng avvalo tabiiy muhitning o'zgarishi bevosita inson, uning psixologiyasi, xulq-atvori, xarakter





ITALY

## SCIENCE AND INNOVATION IN THE EDUCATION SYSTEM

International scientific-online conference



ITALY

xususiyati, tafakkur tarzi, yon atrofni idrok qilish, qolaversa fiziologiyasida ham o'zining ta'sirini ko'rsatishi bilan ahamiyatlidir.

O'quvchilarning ekologik ongini shakllantirish-tabiatni, uni himoya qiladigan va yaratadigan insonlarga nisbatan ongli ravishda to'g'ri munosabatni shakllantirish asosida amalga oshirish maqsadga muvofiqdir [16].

Tabiatning bir qismi sifatida o'ziga nisbatan munosabat, hayot va sog'liqning qadri hamda ularning atrof-muhit holatiga bog'liqligini anglash, tabiat bilan konstruktiv munosabatda bo'lish ko'nikmasini shakllantiradi [3]. Bu jarayonni yanada mustahkamlash uchun yoshlarda mehnatga munosabatni ijobiy psixologik omillaridan maqsadli foydalanish zarur. Buning uchun eng avvalo, mehnat faoliyatini to'g'ri tizimlashtirish masalasiga e'tibor qaratgan holda yoshlarda mustaqil ravishda, ichki istak va xohish bilan hayvonlarni boqish, o'simliklarni parvarish qilish hamda ulardan estetik zavq olish kabi sifatlarni shakllantirish asosida hissiy va irodaviy fazilatlar yuksaltirish lozim. Bu o'z navbatida jamiyat yoshlaridagi ekologik mada niyatni yanada mustahkamlaydi, hamda ishonchni shakllantirishga olib keladi [19].

O'quvchi yoshlarda ekologik madaniyatni shakllantirish masalasining naqadar muhimligini e'tirof qilgan holda ta'kidlash mumkinki, bunday davra suhbatlari, munozaralar oliygohlar qoshida tashkil qilingan radio yoki televidenie orqali namoyish qilinishi va o'quvchilarning keng muhokamasiga qo'yilishi yaxshi natijalarni beradi. O'quvchilar mustaqil faoliyati davomida ko'pgina statistik ma'lumotlarni to'playdilar, ya'ni ilmiy-ommabop adabiyotlar va ekologiyaga manbalarni umumlashtiradilar [20].

Shu bilan birga, o'quvchilar dunyo miqyosida ekologik muammolarning o'rganilishi, ekologik tarbiya borasida olib borilayotgan ishlar qanday yo'lga qo'yilganligi bilan tanishish maqsadida ko'plab ma'lumotlarni biladilar va ish tajribalarini qiyosiy tahlil qiladilar [11]. Ekologik fojialarning oldini olishning birdan-bir yo'li tabiatni muhofaza qilish, barcha tabiiy boyliklarimizdan oqilona foydalanishdir. Ammo, har bir inson qalbida ekologik madaniyatni shakllantirmay turib, bu borada kutilgan natijalarga erishish qiyin.

Yoshlar ongiga tabiatning o'z qonun-qoidalari mavjudligi, tabiatdagi barcha hodisalar, o'zgarishlar bir-biri bilan bog'liqligi, insonning tabiatga to'g'ri munosabatda bo'lishi lozimligi haqidagi tasavvurlarni singdirish, shubhasiz muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda Vatanimiz tarixi va madaniyati, qadimiy urf-odatlarimizni har tomonlama o'rganishga e'tibor kuchaydi. Ta'lim-tarbiya jarayonlarida buyuk ajdodlarimizning, ma'naviy, madaniy, ekologik,





ITALY



ITALY

ijtimoiy tarbiyaga oid meroslaridan kengroq foydalanishga imkoniyat yaratiladi [21].

Ta'limiy islohotlar ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari, tadqiqotchilar va olimlarimiz uchun ulkan imkoniyatlarni vujudga keltiradi. Bu o'z navbatida, o'quvchilarga ekologik rivojlanish, uning mazmun-mohiyati, ahamiyati, shuningdek, mazkur fanni rivojlantirishning zaruriyati, amalga oshirilayotgan islohotlar, yaratilayotgan yangiliklar, fan-texnika yutuqlari, ekologik rivojlanishlar asosida tushuntirish muhimligini ko'rsatadi [22]. Chunki o'quvchilar bugungi kunda yoshlarga qaratilayotgan e'tiborning qadriga yetishi va uni obyektiv baholashi, mustaqillik sharoitida ekologik tarbiya bilan bog'liq muammolarni o'rganish va uni yechimini topish masalalarining zaruriyatini to'g'ri va haqqoniy anglab yetishi hamda kelajakka ishonch hosil qilishi uchun ularda ekologik madaniyatni shakllantirish muhim ahamiyatga ega.

Innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etilgan ekologik ta'lim o'quvchilarda faqat nazariy bilimlarni emas, balki amaliy ko'nikmalarni ham shakllantiradi [23]. Masalan, ekologik mavzulardagi animatsion videolar, virtual ekskursiyalar orqali bolalar tabiat hodisalarini bevosita kuzatgandek taassurot oladi. Bu esa ularning ekologik bilimlarini mustahkamlash bilan birga, tabiatga nisbatan ijobiy hissiy munosabatni ham shakllantiradi [1].

Interaktiv metodlar ekologik madaniyatni rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi. "Aqliy hujum", "Rolga kirish", "Ekologik muammo va yechim" kabi metodlar orqali o'quvchilar ekologik muammolarni angelaydi va ularni hal etish yo'llari haqida mustaqil fikr yuritishga o'rganadi. Bunday yondashuv bolalarda ekologik mas'uliyat va faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantiradi.

Raqamli texnologiyalar asosida yaratilgan ta'limiy o'yinlar ekologik tarbiyaning samaradorligini oshiradi. O'yin jarayonida bolalar chiqindilarni saralash, suv va elektr energiyasini tejash, o'simlik va hayvonot olamini asrash kabi ekologik qoidalarga rioya qilishni o'rganadi [24]. Bu jarayon bolalarda ekologik xulq-atvorning amaliy asoslarini mustahkamlaydi.

Shuningdek, innovatsion texnologiyalar yordamida loyiha faoliyatini tashkil etish ham muhim ahamiyatga ega. "Mening yashil maktabim", "Tabiatni asraylik" kabi kichik loyihalar orqali o'quvchilar jamoa bo'lib ishlash, kuzatish, tahlil qilish va xulosa chiqarish ko'nikmalarini egallaydi. Bu esa ekologik madaniyatni ongli ravishda shakllantirishga xizmat qiladi [4].

Boshlang'ich sinflarda ekologik ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirishga, xalqimizning umuminsoniy qadriyatlarga sodiqligi, xalqimiz adolat, tenglik, ahil qo'shnichilik va insonparvarlikning nozik kurtaklarini asrlar osha





ITALY

## SCIENCE AND INNOVATION IN THE EDUCATION SYSTEM

International scientific-online conference



ITALY

avaylab asrab kelganligi, O'zbekistonni yangilanishning oliy maqsadi ana shu an'analarni qayta tiklash, ularga yangi mazmun bag'ishlash, zaminimizda tinchlik va demokratiya, farovonlik, madaniyat, vijdon erkinligi va har bir kishining kamol topishiga erishish uchun zarur shart-sharoitlar yaratishdir.

Shuni alohida takidlashimiz joizki, "tabiat-inson" va "insoniyat-ekologiya" muammosini o'rganadigan fanlar tizimida psixologiya va pedagogika alohida o'rin tutadi. Bu borada shaxsning ekologik ongi va ekologik ta'lim-tarbiya tizimini shakllantirishning zamonaviy konsepsiyasini ishlab chiqish muhim masalalardandir. Ushbu konsepsiya asosida shaxsda hissiy bilish, amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirish, faollikni maqsadga yo'naltirilganligi, insoniy tamoyillarga sodiqlik, ijtimoiylashuvning yuzaga kelishi ya'ni faoliyat turi bilan almashtirilishi kabi ustuvor parametrlarni qaror toptirish lozim.

Buning uchun esa ekologik ta'limning mukammal tizimini ishlab chiqish va ta'lim tizimiga joriy etish darkor. Ekologik ta'lim-tarbiya qanchalik erta berila boshlasa shunchalik ijobiy samarali bo'ladi. Oila, ta'lim muassasalari va boshqa sohalarda ekologik tafakkur, ekologik ong va ekologik madaniyat uzluksiz tarzda shakllantirilib borilishi zarur. Buning uchun har bir o'qituvchi eng avvalo, ekologik ong, ekologik tarbiya va ekologik madaniyat tushunchalarini o'quvchi yoshlarga singdira olishi lozim. Bu munosabatlar mohiyatini kichik yoshdagi o'quvchilar ongiga etkaza olish, ularning tabiyatga bo'lgan munosabatini to'g'ri ravishda amalga oshira bilishga o'rgatish ekologik ta'limning asosiy negizini tashkil qiladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish ta'lim jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Raqamli vositalar, interaktiv metodlar va o'yin texnologiyalari orqali ekologik bilimlar bolalar ongiga oson va mustahkam singdiriladi. Natijada o'quvchilarda tabiatga nisbatan mas'uliyatli munosabat, ekologik ong va madaniyat shakllanadi. Shu bois ekologik ta'limni innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etish zamonaviy boshlang'ich ta'limning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qoladi.

### Adabiyotlar:

1. Begimqulov U. Boshlang'ich ta'lim metodikasi. -T.: 2009. 68-b.
2. Виноградова Н.Ф. Экологическое воспитание младших школьников: Проблемы и перспективы// Начальная школа. – 1997. - №4.
3. Ismoilova M. Ekologik tarbiya va ta'lim masalalari. -T.: 2018. 57-b.
4. Karimov N. Pedagogik texnologiyalar asoslari. -T.: 2020. 45-b.



5. Karamatova D.S. Kichik maktab yoshidagi bolalarda tabiatga, jamiyatga va o'z-o'ziga nisbatan mas'uliyatli munosabatlarini tizimli rivojlantirish // "Образование и наука в XXI веке" Международный научно-образовательный электронный журнал. Выпуск № 25 (том 3), март, 2022.
6. Karamatova D.S. Zamonaviy ekologik ta'limda bolalarning tabiatga, jamiyatga va o'z-o'ziga nisbatan mas'uliyatli munosabatlarini shakllantirish imkoniyatlari // Miasto Przyszłości. Volume 29 (2022) of ImpaktFactor: 9.2. Retrieved from <https://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/747>. 194-196 b.
7. Karamatova.D.S. O'quvchilarda atrof-muhitga ongli munosabatni shakllantirish yo'llari // O'zbekiston respublikasi xalq ta'limi vazirligining ilmiy-metodik jurnal. Toshkent, 2022. – № 3-son (may-iyun) -B. 104-107.
8. Karamatova D.S. Zamonaviy ekologik ta'lim mazmunida integrativ yondashuvni ta'minlash // Муг'аллим хэм билимлендириү. – № 3. – Nukus, 2022 – B. 90-95.
9. Karamatova.D.S. Integrativ yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ekologik madaniyatini rivojlantirish // TDPU Ilmiy axborotlari ilmiy-nazariy jurnal.2023 yil,7-son.331-338 b.
10. Karamatova D.S. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ekologik madaniyatini shakllantirishda meta-predmetli yondashuv // Kasb-hunar ta'limi. Ilmiy-uslubiy, amaliy, ma'rifiy jurnal. 2024, 5-son.249-254 b.
11. Karamatova D.S. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ekologik ta'lim-tarbiya berishning muhim vazifalari // XXI asr ko'nikmalarini ommalashtirishda talabalarning roli: Xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konf. material. 2022-yil 18-noyabr. – Jizzax, 2022. – B. 464-468.
12. Karamatova D.S., Safarbayeva R.N., Murodova M.M. Bo'lajak pedagoglarning integrativ yondashuv asosida ekologik madaniyatini shakllantirish // "Образование и наука в XXI веке" Международный научно-образовательный электронный журнал. Выпуск № 25 (том 3), март, 2022. – B.950-955.
13. Karamatova D.S., Tolliyeva G.R., Qilichova M.J. O'quvchilarda ekologik ong va ekologik madaniyatni rivojlantirish dolzarb pedagogik muammo sifatida // "Образование и наука в XXI веке" Международный научно-образовательный электронный журнал. Выпуск № 25 (том 3), март, 2022. – B.956-962.



ITALY

# SCIENCE AND INNOVATION IN THE EDUCATION SYSTEM

International scientific-online conference



ITALY

14. Karomatova D.S., Qilichova, M. Pedagogning kasbiy kompetentligi va uni amaliyotda qo'llay olish mahorati // Science and innovation. 2022, 1(B7), 764-768.
15. Karomatova D.S., Qilichova M.J. Boshlang'ich sinflarda o'zlashtirishi past o'quvchilar bilan ishlash metodikalari // Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali. 2022, 1(4), 11-15. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7248826>
16. Karamatova, D., & Mahmudova, N. (2025). Tarbiya jarayonini tashkil etishda o'qituvchining kreativ yondashuvi // Theoretical Aspects In The Formation Of Pedagogical Sciences, 2025, 4(7), 133-138. Zenodo. <https://doi.org/10.5281/zenodo.15210702>
17. Norbo'tayev X.B. Boshlang'ich ta'limda ekologik xafvsizlik madaniyatini takomillashtirish. Некис-2022. -Б. 93-97.
18. Салаева М.С., Бекназарова Х.Х. Бошланғич таълим ўқувчиларини ижтимоий мобиллигини ривожлантириш // Eurasian journal of social sciences, philosophy and culture. Innovative Academy Research Support Center UIF = 8.2 | SJIF = 6.051 Volume 2 Issue 4, April 2022. Pages 136-139. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6511330>
19. Салаева М.С., Бекназарова Х.Х. Формирование мобильности личности как педагогическая проблема // Scientific progress. Volume 3 | ISSUE 3 | 2022. -Pages 384-390. <http://www.scientificprogress.uz/storage/app/media/3-3.%20065.%20384-390.pdf>
20. Салаева М.С., Джумабаева М.Б. Педагогнинг кичик мактаб ёшидаги болаларни ижтимоий мобиллигини оширишга таъсири // Ijtimoiy Fanlarda Innovasiya Onlayn Ilmiy Jurnali, ISSN - 2181-2608. Impact Factor: 8.2 SJIF: 5.426 - Б. 59-62. <http://www.sciencebox.uz/index.php/jis/article/view/1552>
21. Салаева М.С., Ким Х.В. Формирование положительной мотивации у младших школьников к учебной деятельности// World of Scientific news in Science International Journal. 2024 Vol. 2 №. 4. – Pp. 147-153. <https://worldofresearch.ru/index.php/wsjs/article/view/439>
22. 147-153. <https://worldofresearch.ru/index.php/wsjs/article/view/439>
23. Salayeva M.S., Koshnazarova M.A. Shaxs mobilligini shakllantirish pedagogik muammo sifatida // Journal of science-innovative research in Uzbekistan” jurnali. Volume 2, ISSUE 1, ResearchBib Impact Factor: 8.654/2023 ISSN 2992-8869. 2024. January. -Pp. 16-25.
24. Salayeva M.S., Luxmanovna N.M. Kichik maktab yoshdagi o'quvchilarni ijtimoiy faolligini rivojlantirish // Scientific progress. Volume 3 | ISSUE 3 | March, 2022. - Pages 380-383. <http://www.scientificprogress.uz/storage/app/media/3-3.%20064.%20380-383.pdf>



25. Салаева М.С., Мамадалиева У.С. Развитие когнитивной мобильности учащихся в начальном образовании / “Xorijiy tillarni o‘qitishda yangicha yondashuvlar” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy onlayn anjumani. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti – T.: “Firdavs-Shoh” nashriyoti, 2022 – B. 276-281.
26. Симонова Л.П. Экологическое образование в начальной школе. – М.: Академия, 2010 г.
- UNESCO. Education for Sustainable Development. Paris.

